SHARQ MUTAFAKKIRLARINING TA’LIM-TARBIYAGA QO‘SHGAN HISSASI

Azimova R.Z., GDPI o‘qituvchisi
e-mail:rushana0242@mail.ru
Sayliyeva U.S., GDPI talabasi

Annotatsiya: maqolada sharq mutafakkirlarining ta’lim-tarbiyaga oid qarashlari, g‘oyalari va shu sohaga qo‘shgan boy meroslarining muhimligi hozirgi kungacha naqadar yuksak ahamiyat kasb etishi, shuningdek yoshlarni tarbiyalashda muhim omillar, tarbiya usullari va vositalari haqida yoritilgan.

Kalit so‘zi: tarbiya, ta’lim, axloq, komil inson, hadisshunos, mutafakkir, kuchli mo‘min, sahih, ma’naviy,madaniyat, bilim, ma’suliyat, diniy, fikriy, g‘oya, axloqiy, hikmat,serunum, qimmatli, soha, xulq-atvor, alloma, ne’mat,tahlil,odob,xayol.

Аннотации: в статье описаны взгляды, идеи и богатое наследие восточных мыслителей на образование, насколько они важны и по сей день, а также методы и инструменты образования, имеющие важное значение в воспитании молодежи.

Ключевые слова: образование, образование, мораль, совершенный человек, знаток хадисов, мыслитель, сильный верующий, подлинный, духовный, культура, знание, ответственность, религиозный, интеллектуальный, идея, мораль, мудрость, сыворотка, ценное, сфера, поведение, аллома, благо.

Abstract: the article describes how the views, ideas and rich heritage of Eastern thinkers on education and the importance of their rich heritage in this field are important to this day, as well as the important factors, methods and means of educating young people.

Key words: education, education, morality, perfect person, hadith scholar, thinker, strong believer, authentic, spiritual, culture, knowledge, responsibility, religious, intellectual, idea, moral, wisdom, valuable, sphere.

Ta’lim-tarbiya masalalari hamisha sharq mutafakkirlari yozuvchi, olimlari xayolini band qilib kelgan. Har bir davrda bu masalaga alohida e’tibor qaratilgan va har bir davrning mutafakkir va olimlari o‘zlarining fikr va g‘oyalari, boy merosi, asarlari orqali ta’lim tarbiyaga ulkan hissa qo‘shganlar. Rog‘ib Asfuhoniy tarbiyani quyidagicha ta’rif qiladi, " Tarbiya bir narsani bir holdan ikkinchi holga o‘tkazib borib, batamomlik nuqtasiga yetkazishdir. Tarbiyaning ma’nolaridan biri insonning diniy, fikriy va axloqiy quvvatlarini uyg‘unlik va muvozanat ila o‘stirishdir". Islomda bolalar tarbiyasi ota-onaning eng ma’suliyatli va uzoq davom etadigan burchlaridir. Boshqa burchlar ba’zi ishlarni qilish yoki qilmaslik bilan oxiriga yetadi. Ammo tarbiya ma’suliyati bardavom bo‘ladi. Zotan ota-onaning farzand ne’matiga haqiqiy shukrlari ham aynan tarbiya ma’suliyatini sharaf bilan ado etish orqali yuzaga chiqadi.

Buyuk hadisshunos alloma Buxoriy ham o‘z asarlarida ta’lim tarbiyaga e’tibor qaratgan. Allomaning asarlarida tarbiyaga oid qarashlarning markazida komil inson tarbiyasi yotadi. "Al-Adab al-mufrad" asarida ham inson axloqi, odobi, ma’naviy kamolotiga doir hadislarni turli mavzular bo‘yicha tasnif qilgan va izohlar bergan. Asarning ilk boblarida ota-ona oldida farzandlik burchlari, ota-onani rozi qilish to‘g‘risida fikr yuritilgan. Hadislarda "Kuchli mo‘min Alloh taologa zaif mo‘mindan ko‘ra mahbubroq va afzalroq" ekani bayon qilinadi. "Kuchli mo‘min" deyilganda nafaqat mushaklar bilan balki, ilm-ma’rifat, zamonaviy fan texnologiya yutuqlaridan unumli foydalanish orqali uni jamiyat manfaatlari uchun qidiradigan insonni tushunamiz. Buxoriy g‘oyatda beg‘ubor, halol-pokiza, diyonatli inson bo‘lib, g‘iybat-u nohaqliklardan uzoq bir kishi edi. U doimo "G’iybat qilish harom ekanini bilganimdan boshlab, hech qachon biror kishi haqida g‘iybat gapirmaganman"-deb ta’kidlardi. Imom al-Buxoriyning eng ulug‘ fazilatlaridan yana biri u mutassiblikning har qanday ko‘rinishlaridan uzoq bo‘lgan alloma edi. Uning shoh asari "Sahih al-Buxoriy" bilan chuqurroq tanishilsa, al- Buxoriyning o‘z kitobidagi ma’lumotlarga nihoyatda katta sinchkovlik va ehtiyotkorlik bilan yondashganini ko‘ramiz. Qanchadan-qancha mashaqqatlar bilan to‘plangan hadislarning sahihligiga to‘la ishonch hosil qilib, obdon tekshirgandan keyingina o‘z asariga kiritganligi ushbu fikrimizni yana bir bor tasdiqlaydi. Buxoriy muhaddislarda hadislarga bo‘lgan katta mehr va intilish hamda unga qat’iy amal qilish har qanday tahsinga sazovor, deb hisoblardi. Bu masala g‘oyatda muhim bo‘lib, bu xususda ba’zi muhaddislarning o‘zlari ham fikr-mulohazalarini bildirganlar. Jumladan, imom Ahmad ibn Hanbal "O‘zim amal qilmagan bitta ham hadisni kitobga olmaganman",-deb ta’kidlagan. Manbalarda imom al-Buxoriyning xotirasi kuchli bo‘lganligi xususida ko‘pdan ko‘p qiziqarli rivoyatlar keltiriladi. Buxorolik olim Salim ibn Mujohid shunday hikoya qiladi:"Bir kun do‘stim Muhammad ibn Salom al-Poykandiyning uyiga borgan edim, u menga:" Biroz oldinroq kelganingizda yetmish ming hadisni yod biladigan bir

bolakayni ko‘rar eding-da",-dedi. Men shu zahoti orqamga qaytib, ko‘chaga chiqdim va o‘sha bolani uchratib:"Yetmish ming hadisni yod bilaman, deydigan bola senmisan?"-deb so‘rasam, u: "Ha, balki undan ham ortiqrog‘ini bilaman",-dedi. Muhammad ibn Salom al- Poykandiyning ushbu so‘zlari ham al-Buxoriy yoshligidan boshlab katta obro‘-e’tiborga ega bo‘lganligiga dalildir. Uning " Muhammad ibn Ismoil qachon mening huzurimga kirsa, har doim men o‘zimni yo‘qotib qo‘yib, doim undan xavotirda turaman",- degan. Bu gaplar ham buyuk alloma Buxoriyning g‘oyat ilmli, zukko bo‘lganidan, hatto ustozlari ham tan berganini bilishimiz mumkin.

O‘rta asr sharqining jahonga mashhur yana bir qomusiy olimlaridan biri Abu Rayhon Beruniy. U ijtimoiy sohaga bag‘ishlab maxsus asarlar yozmagan, biroq uning barcha asarlarida ta’lim-tarbiya, odob va axloq masalalariga oid qarashlariga duch kelish mumkin. "Bilim shunday narsaki, u yalang‘och bo‘lganingda ham o‘zingda qoladi, hammomga kirsang suv bilan yuvib bo‘lmaydi. Bilim qaytarish va takrorlash mevasidir"- deb aytib o‘tgan.

"Men bolalik chog‘imdanoq,-deb yozadi Beruniy,- o‘z yoshim va sharoitimga qarab, imkoni boricha ko‘proq bilim olishga intildim. Buning dalili sifatida quyidagini keltirish kifoya: biz turadigan joyga bir yunon ko‘chib kelgan edi. Men har xil donlar, urug‘lar, mevalar va hakozolarni olib borib, unga ko‘rsatar va bu narsalar uning tilida qanday atalishini so‘rab, nomini yozib qo‘yar edim". Demak, Beruniy yoshligidanoq chidam va matonat bilan bilim o‘rgangan, hatto yunon tilini chuqur egallagan. Undagi aql-zakovat, teran bilim Xorazmshoh-u Sulton Mahmudlarni hayratga solgan. Beruniy " Bugunni chorasini ko‘rib, ertaga ehtiyoji qolmagan kishi aqllidir."-deb bejizga aytmagan.

Fan va madaniyat olamida o‘z o‘rni va mavqeyiga ega bo‘lgan ulug‘ mutafakkir, zabardast olim, buyuk allomalardan biri Farobiydir. Farobiy "Har kimki ilm-hikmatni o‘rganaman desa, uni yoshligidan boshlasin, salomatligi yaxshi bo‘lishiga intilsin, axloq-odobli bo‘lsin, so‘zining uddasidan chiqsin, yomon ishlardan saqlansin, hiyonat va makr-hiyladan uzoq bo‘lsin."-deb aytib o‘tgan. U qadimgi yunon fani va madaniyatini insoniyat sivilizatsiyasida tutgan o‘rnini yuksak baholab, butun ilmiy faoliyati davomida nafaqat unga suyandi, cheksiz hayratlandi va ilhomlandi, balki kishilik tarixida o‘chmas iz qoldirgan yunon olimlarining, ko‘proq Arastuning asarlarini targ‘ib qildi, ularning ko‘plarini arab tiliga tarjima qildi, sharhlar yozdi. Farobiy yosh avlodni kamolga yetkazishda u yashayotgan jamiyatdagi muhit, hayotiy tajriba, talim-tarbiyaning ta`siri va bu ta`sir natijasida ular o‘zlaridagi ijobiy yoki salbiy xislat-fazilatlarni namoyon qilishlarini aytadi. “Insonlar tug`ilganda kamolotli bo‘lib tug`ilmaydi, ularni orasida aslida farq ham bo‘lmaydi, ularning xulqi, faoliyati, hayoti o‘xshash bo‘ladi, keyinchalik esa o‘zgaradi, ya`ni ijtimoiylashuv jarayonida jamiyatda odamlar ming yillardan beri amal qilib kelayotgan qadriyatlarni va me’yorlarni qabul qiladilar."

Xorazm zaminida tavallud topib faoliyat ko‘rsatgan buyuk allomalardan biri Mahmud az-Zamaxshariy. Zamaxshariyning hayoti va faoliyati haqidagi ma’lumotlar, asosan, o‘rta asr arab manbalarida, qisman olimning asarlarida keltirilgan. Zamaxshariy xulq-atvori yaxshi, shirinsuxan va g‘oyat muruvvatli kishi sifatida el orasida katta obro‘ga ega bo‘lgan. Onasi ham taqvodor va fozila, ma’rifatli ayollardan hisoblangan. Yoshligidan ilm-fanning turli sohalarini, ayniqsa, arab tili va

adabiyotini, diniy ilmlar majmuasini mukammal egallaydi. Ayni vaqtda o‘sha davrda ilm ahllari orasida g‘oyatda zarur va muhim hisoblangan xattotlik san’ati sirlarini ham to‘liq o‘zlashtirib, uni obdon egallaydi. Jismoniy nogironligiga qaramasdan, az-Zamaxshariyning katta ishtiyoq va sobitqadamlik bilan bilim olish yo‘lida ko‘rsatgan bu jasorati va fidoyiligi har qanday tahsinga sazovordir va katta bir ibratdir. Az-Zamaxshariy hayoti bilan chuqur tanishilsa, uning ilm talabida qator xorijiy mamlakatlarga safar qilganligini ham ko‘ramiz. Allomaning sharqning turli shaharlarida juda ko‘plab shogirdlari bo‘lgan. Ayniqsa, Makkayi Mukarramada besh yildan ortiq yashagan paytlari olim uchun g‘oyatda serunum bo‘ldi. Ma’lumki, biron-bir allomaga nasib etmagan yuksak maqom -Jorulloh ("Allohning qo‘shnisi") degan laqabga faqat buyuk vatandoshimiz az-Zamaxshariy musharraf bo‘lgan. Mana shu mulohazalarga tayanib aytish mumkinki, uning ustozlariyu shogirdlari turli elatlar va millatlarga mansub ilm ahllari bo‘lgan, ilm yo‘lida az-Zamaxshariy tom ma’noda haqiqiy baynalmilallik fazilatlarini namoyon qilgan deyishimiz mumkin. Chunonchi, unga bevosita shogird bo‘lib olimdan to‘g‘ridan-to‘g‘ri saboq olgan shogirdlari ona yurti Zamaxsharda, Xorazmda, Tabaristonda, Samarqandda, Bag‘dodda, Damashqda, Halabda bo‘lib qolmay, balki unjng yetuk asarlari orqali undan saboq olib, o‘zini g‘oyibona az-Zamaxshariyning shogirdiman, deguvchilar musulmon dunyosining turli burchaklarida ko‘plab topilardi. Az-Zamaxshariyning chuqur bilimi va ilm-fanning turli sohalariga oid qimmatli, o‘lmas asarlari hali u hayot paytidayoq butun musulmon Sharqida unga betakror shuhrat keltirgan. Allomani chuqur hurmat va alohida mehr bilan "Ustoz ad-dunya" ("Butun dunyoning ustozi"), "Ustoz al-arab val-ajam" ("Arablar va g‘ayri arablarning ustozi", "Jorulloh" ("Allohning qo‘shnisi"), "Faxru Xorazm" ("Xorazm faxri") kabi birorta ham allomaga nasib etmagan o‘ta sharafli laqablar bilan ataganlar.

Ta’lim-tarbiya mavzusi hech bir davrda o‘zining dolzarbligini yo‘qotmaydi. Yoshlarda axloqiy fazilatlarni, ma’naviyatni shakllantirishda buyuk ajdodlarimizdan qolgan asarlarni ularning ongiga singdirish, buyuk mutafakkirlarimiz yaratgan boy merosga muhabbat uyg‘otish lozim. Farzand tarbiyasida, ularning ma’naviy dunyoqarashlarini kengaytirish va boyitishda, mutafakkirlarning fikr-mulohazalari, pand-nasihatlari, hikmatlaridan foydalanish va barkamol insonni voyaga yetkazish barchamizning burchimizdir.Yoshlar ongini turli xil keraksiz tushunchalar bilan band qilmasdan,doimo eng zarurlarini o‘rgatmoqlik kerak chunki umr qisqa,vaqt kam doim ham hayotimiz biz o‘ylagandek bo‘lavermaydi.SHarq alomalarimiz bularning barini o‘zlarining hayot tajribalari asosida bilishgan,bularning barini vaqtida anglagan holda o‘zlarining kelajak avlodiga ham yetkazish va tushuntirish maqsadida o‘zlarining bilimlarini yozma bayon qilishgan.Har bir donishmand shaxsning ortida albatta uni qo‘llab-quvvatlaydigan,har qanday vaziyatda yonida tura oladigan bir inson b’olishi kerak har olim-u fuzalolarning ham o‘zlarining bilimlarini namoyan qilishlari uchun albatta ustozlari bo‘lishgan.Hammaning birinchi ustozi albatta ota-onasi bo‘ladi.Buyuklar ham shunchaki buyuk bo‘lib qolmagan ular vaqtida turli xil qiyinchiliklarni yengib o‘tishlariga to‘g‘ri kelgan.Hammada iqtidor,qobiliyat bor lekin hamma ham bularni to‘g‘ri yo‘naltirib shakklantira olmaydi sababi bitta oilada to‘g‘ri tarbiya va to‘g‘ri tartibning mavjud emasligidir.Bolani qiziqishlarini o‘z vaqtida bilib olish va unga zarur bo‘lgan eng asosiy bilimlarni yoshligidan boshlab

o‘rgatmoqlik darkor.Hayotda har bir inson o‘z qiziqishlari asosida yashasa,qiziqqan kasb-hunarga borsa o‘rgansa kelajakda haqiqiy kerakli inson bo‘ladi.Biz kelajak avlod, ajdodlarimizga mos bo‘lishimiz ularning haqiqiy avlodi ekanligimizni isbotlashimiz,shuningdek ulardan qolgan boy moddiy va ma’naviy meroslardan oqilona foydalangan holda jamiyat,yurt hayotini yanada yaxshilash,dunyo miqyosida rivojlangan davlatlar qatoriga olib chiqishni asosiy maqsad qilib olgan holda jiddiy harakat qilmog‘imiz darkor.Buyuk mutafakkirlarimiz har bir soniyadan oqilona foydalanishga harakat qilishgan,hattoki shunday bir vaqtlar bo‘lganki ular hatto ovqatlanishni ham unutib ilm olishga berilib ketishgan ming afsuslar bo‘lsinki bugungi kunda yoshlar ilmga emas balki insonlarni o‘ziga qul qilayotgan,bog‘lab qo‘yayotgan telefonga juda berilib qolishmoqda,hattoki beg‘ubor bolalarning qo‘lida telefon,kitoblar kutubxonalarda changga bellanib qolyapti,ajdodlarimiz qanchalar buyuk shaxslar biz bugungi kunda o‘z holimizga achinishimiz va ularni vaqtida bartaraf qilishimiz,oldini olishimiz,xatolarimiz anglashimiz o‘zimiz uchun va vatan ravnaqi uchun eng to‘g‘ri qaror qilgan bo‘lamiz.Kelajakda biz yoshlar ham ulug‘ bobolarimiz Alisher Navoiy,Abu Ali Ibn Sino,Abdulla Avloniy,Imom Buxoriy, Xorazmiy, Farobiy,Behbudiy va boshqalar kabi biz ham vatanimiz nomini butun dunyoga tanitishimiz va ilim olishdan,uni boshqalarga ulashishdan hech qachon to‘xtamasligimiz,doimo eng yuqori natijalarga erishmog‘imiz muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ubaydulla Uvatovning "Buyuk mutafakkirlar"—"Tamaddun" Toshkent-2011
2. M.Shoxadjyaev. Burxoniddin Marg‘inoniyning axloqiy-huquqiy tarbiyaga oid qarashlari. Avtoreferat. T.: 2006 y.
3. Hamidjon Homidovning "Qirq besh alloma hikoyati"
4. A.Haydarov. Inson kamoloti va milliy -ma’naviy qadriyatlar T:Muharrir 2008.
5. I.Karimov. Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch. T.: Ma’naviyat 2008 yil
6. O.Hasanboeva, J.Hasanboev, H.Hamidov “Pedagogika tarixi” Toshkent 1997